

OILAVIY MUNOSABATLARNING O‘ZIGA XOS IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Baratov Nasriddin Karshibayevich

JDPU

o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik asoslari va jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Katil so‘zlar: Barkamol shaxs, individ, nikoh, xulq-atvor, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-ma’naviy, psixologik yordam, mikrostruktura, an’ana.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются конкретные социально-психологические основы и аспекты семейных отношений.

Ключевые слова: Гармоничная личность, индивид, брак, поведение, социально-психологическая, социально-духовная, психологическая поддержка, микроструктура, традиция.

ABSTRACT

This article examines the specific socio-psychological foundations and aspects of family relations.

Keywords: Harmonious personality, individual, marriage, behavior, socio-psychological, socio-spiritual, psychological support, microstructure, tradition.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev aytganlaridek – “Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi”. Darhaqiqat jamiyatning kuch-qudratini ta’minlaydigan eng oliy qadriyat oilaning tinchligi va mustahkamligidir. Bizga ma’lumki yurtimizda oila, nikoh masalalari azal azaldan qadrlanib kelinadi. Bu muqaddas qadriyatlar hozirgi davrgacha ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Oilalarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyos, chunki har bir inson tarbiyasi avvalo kichik bir vatan - oiladan boshlanadi.

Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatga har tomonlama sog‘lom, barkamol, yetuk shaxslar kerak. Bunda jamiyatda oilaning ahamiyatini oshirish uni yanada mustahkamlash, oiladagi sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, yosh oilalardagi muammolardan tadqiqot olib borish asosiy va dolzarb muammolardan biri

hisoblanadi. Bizga ma'lumki, oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanishi, u tarbiya o'chog'i sifatida barkamol shaxsning shakllanishida ishtirok etadi. "Oila qasri"ning mustahkamligi shu qasrning asosiy poydevori bo'lmish nikoh oldi omillari jihatlariga, ularning qay darajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo'lsa, shuningdek ustida qurilgan imorat ham ko'rkam, yorug', bejirim unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, bexavotirlik, osoyishtalik, tinchlik va huzur-halovat bag'ishlaydigan bo'ladi.

Oilaviy hayot tarzi va u bilan bog'liq bo'lgan masalalar necha asrlardan buyon buyuk mutafakkirlarning diqqat-e'tiborini, bugungi kunda esa turli fan sohalari namoyondalarini o'ziga tortib kelmoqda. Chunki oila ijtimoiy jamoa sifatida tarbiyalovchi, maqsadga yo'naltiruvchi, safarbar etuvchi, moslashtiruvchi, hordiq chiqaruvchi, nasl qoldiruvchi, psixoterapevtik kabi faoliyatini bajarib, insonni jismoniy va ijtimoiy-ma'naviy kamol topishini ta'minlaydi. Aynan mazkur ijtimoiy-psixologik jihatlar bilan, oila, boshqa ijtimoiy guruhlardan ajralib turadi. Ijtimoiy institut sifatida oilaning ijtimoiy hayoti davomida bir nechta bosqichlardan o'tadi, ya'ni oilaning ibtido va intiho nuqtalari borlihi hammaga ma'lum. Ijtimoiy-psixologik ta'limotlarning asosiy tamoyillariga amal qilib, R. S. Samarov uni yetti bosqichga ajratib ko'rsatgan. Bular:

- o'g'il-qiz bolalar tomonidan umr yo'ldosh, rafiqqa tanlash bosqichi;
- yoshlarni bir-birini o'rganish va nikoh tuzish bosqichi;
- yosh kelin-kuyovlarni bir-biriga o'zaro moslashishi va hayotiy qiyinchiliklarni birga yengib o'tish bosqichi;
- oilada farzandlarni dunyoga keltirish, farzandlarni tarbiyalash bosqichi;
- farzandlarning kamol topishi va mustaqil olaviy hayotga kirib borish bosqichi;
- farzandlarning istiqbolda o'z oilasiga ega bo'lish bosqichi;
- er-xotinlarning yoshini (biologik yosh) ulg'ayishi va ularning olamdan o'tish (ulardan biri, yoki har ikkisi ham) bosqichi.

Har bir bosqich, oila hayotining mustahkamligini ta'minlashga, amaliy psixologik xizmat ko'rsatish jihatidan esa, er-xotinlarni o'zaro munosabat xarakterining dinamikasini belgilab borishni taqozo etadi. Shu jihati bilan, tavsiya etilayotgan ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish modeli e'tiborga molik. Chunki, ajralish arafasida turgan o'zbek oilalarining oilaviy tajribasi turlicha. Ularning qatorida yosh oilalar, oilaviy hayot tajribasi besh va o'n yildan yuqori bo'lgan oilalar ham mavjud. Shuning uchun bo'lsa kerakki, insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida oila hamisha diqqat va e'tiborni tortuvchi institut sifatida ko'p e'tibor beriladigan ob'ekt hisoblanib, oilaning shakllanishi, ko'rinishi, mustahkamligi, farzandlar tarbiyasi, ota-ona munosabatlari va boshqa bir qator masalalar shular jumlasidandir.

Mazkur masala qadim-qadimlarda, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-psixologik qarashlarida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, "Avesto" davrida oila hayotini saqlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda xotirlarning erlari bilan munosabati teng ekanligi haqida so'z yuritilgan. Masalan, Mug' tog'idan topilgan "Do'g'doncha va Ut-tegin nikoh shartnomasi" bung aynan misoldir. Oilaning ajrashuvidan oldin er va xotin bilan kattalar suhbat o'tkazib, erning xotirga bo'lgan haqini va xotinni eriga bo'lgan haqini belgilab berishgan. Maqsad, oiladagi farzandlarni yetimlikdan saqlab qolish, ijtimoiy psixologik himoyani ta'minlashdan iborat bo'lgan. Garchi, bu yondashuvlarda ilmiy psixologik yondashuv kuzatilmasada, er va xotinni oila haqidagi ijtimoiy munosabatini baholashda madaniy-erkinlik darajasi (cultural freedom) va ularning xulq-atvori (behavioral assessment)ga e'tibor qaratilgan. Shundan so'ng, oilani saqlash yoki tarqalib ketishiga nisbatan munosabat bildirishgan. Buni, oilaga ilmiy bo'lmagan psixologik yordam ko'rsatishning birinchi davri deb ko'rsatsak xato qilmagan bo'lamiz.

Oilaga e'tibor juda ko'plab mutafakkirlar tamonidan qaratilgan. Ular oila masalalari bilan shug'ullanish natijasida o'ziga xos fikrlarni ta'kidlab o'tganlar. Jumladan, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" (Yaxshilik keltiruvchi bilimlar) dostonida umr yo'ldoshni tanlash haqida fikr bildirib, jumladan, shunday deb yozgan edi: "Agar yaxshi, andishali ayol topishga muyassar bo'lsang, boy berma, darhol olgin, ey ezgu kishi. Tilaging boylik bo'lsa, u mol-dunyo yig'aberadi, seni boyitadi, yuzingni yorug' qiladi. Fe'l-atvori to'g'ri bo'lsa, juda munosib bo'ladi, xotinning chiroyi xulqdir, buni bilgan biladi. Andishali, pokiza bo'lsa, unday kishi asl bo'ladi, yuqoridagi uch narsa unda jam bo'ladi, ey unib-o'sgur. Sen xotinning andishali-aqlisini ista, ey dono, andishali-aqlli xotinda yuqorida aytilgan to'rt xislatning hammasi bor. Sen shunday xotinni topadigan bo'lsang, tirish, qarorli bo'l, boy berma, darhol ol, ey mard kishi". Oilani ma'naviy muhitini ayol ta'minlashini, uning aql-idroki, xulq-atvori erkak hayotida nechog'li muhimligini ko'rsatib o'tgan. XII-XIII asrlarda yashab ijod etgan adib Ahmad Yugnakiy "Hibat-ul-haqoyiq" (Haqiqatlar sovg'asi) nomli asarining birinchi bo'limida (Ilm manfaati, jaholatning zarari haqida) shunday yozadi: "Bilimli kishi bilan bilimsiz odam qachon teng bo'ladi, bilimlik xotin kishi-er kishidir, bilimsiz erkak-xotin kishidir" deya ta'kidlaydi. Chunki, ilmiy oila va nikoh haqida bilimga ega bo'lishni anglatadi. Agarda er va xotin oila va oilaviy hayotga oid ilmga ega bo'lsalar, ularning hayotlari ham, ular egallagan bilimga tayangan holatida kechadi.

Ko'rinib turibdiki, oila o'zaro ishonchga va sof niyatlarga asosan qurilsada, er-xotirlarda oila haqida ijtimoiy tasavvurni to'g'ri shakllanganligi oilaviy hayot uchun muhim hisoblanadi. Oila a'zolari bir-birlari bilan birga umumiy turmush, o'zaro iqtisodiy-mulkiy, huquqiy, axloqiy, estetik, rihiy va hokazo aloqadorlikda bo'lib,

o‘zaro ijtimoiy munosabatlar dinamikasi o‘zgarib boradi. Shu sababli, oila ijtimoiy institut sifatida quyidagi xususiyatlarni ifoda etadi:

birinchidan, oila ijtimoiy munosabatlarning mikrostrukturasidagi muhim qism hisoblanadi;

ikkinchidan, yangi avlodning ijtimoiylashuvini ta‘minlab, uni tarbiyasiga asos soladi;

uchinchidan, oilada individ ma‘lum maqom va rollarni egallab, uni mohiyatini anglab oladi. Bu oila xo‘jaligidagi mehnat taqsimotiga, qarama-qarshi jinslar, avlodlar o‘rtasidagi ijtimoiy tenglik darajasiga asoslanadi;

to‘rtinchidan, oila kuchli tartibga solingan normativlarga ega bo‘lib u faqat axloqiy-huquqiy normativlarga emas, balki urf-odat va an‘analarga amal qiluvchi ijtimoiy institut sanaladi.

Ayni paytda oila jamiyatning eng an‘anaviy va o‘zgarmas ijtimoiy institutlaridan biri ekan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan anchagina holi va mustaqildir. Albatta, bunday holatdagi barqarorlikka qaramay, oilaning tuzilmaviy strukturasi turli ijtimoiy funksiyalarni bajarish jarayonida o‘zgarib turadi. Oilaning mohiyatiga chuqurroq yetish uchun bu funksiyalarni ijtimoiy-psixologik jihatdan tasniflash zarur. Ularning muhimlari:

- tarbiya berish-kamolotga yetkazish va ijtimoiylashtirish;
- xo‘jalik-maishiy ishlarni yuritishni ta‘minlash;
- bo‘sh vaqtni tashkil etish zarurligi;
- jinsiy hayotni boshqara bilish.

Oila, milliy-madaniy hayot tarzini ifodalovchi va ta‘minlovchi ijtimoiy institutdir. U orqali jamiyat insonlarning hayot tarzini tartibga soladi va boshqarib turishi aniq. Oila har doim jamiyatni yangi avlodlar bilan to‘ldirib turadi. Qari va dunyodan ko‘z yumgan insonlar o‘rniga yangi va yangi avlodlar jamiyatga kirib kelaveradi. Jamiyat esa, mana bunday yoshlar hisobiga yashaydi va yangi mehnat zaxiralariga, yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarga, ma‘rifiy bunyodkorlarga ega bo‘lib boraveradi. Demak oila, jamiyatni yangi a‘zolar bilan to‘ldirib turuvchi institutligi xammaga ma‘lum. Bundan boshqa yo‘llar natijasiz va ijtimoiy tasdiqlanmagan. Shuning uchun, an‘anaviy qadriyatlar asosida oiladan tashqari tug‘ilgan bola muhokama qilinadi va qoralanadiki, etnopsixologik xususiyat sifatida baholanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash mumkinki, oilalarida ota-onalar va farzandlar munosabatlari, aka-ukalarning o‘zaro munosabatlari, avlodlararo munosabatlar xususiyatlari, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik qilish, o‘zbek oilasida ota-onalarning farzandlariga, farzandlarning ota-onasiga munosabati, ota-onalik va farzandlik burchlarining ado etilishida an‘anaviy munosabatlar xarakterining nisbatan yaxshiroq saqlanib qolganligi kabi milliy-zamonaviy qadriyatlar o‘z aksini topgan.

Shu munosabat bilan, yosh oilalarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik asoslari haqida umumiy ma'lumotlar, yosh oilalar munosabatlari, modeli va xususiyatlari hamda yosh oila va sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirish masalasiga alohida diqqat e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni <https://lex.uz/docs/4789015>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son qarori <https://lex.uz/docs/4789015>
3. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. - T.: Universitet, 1997. - 157 b.
4. Samarov R.S. «Avesto»: ayol va oila masalasi // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1999, 8-son. 58-60 betlar.
5. Yusupov E. Oila ma'naviyat bulog'i. - T. 2003.
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008. –170 b.
7. Akramova F.A. Yoshlarni oilaga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari // Oila va maktab. 2015. № 10.